

“BOBURNOMA”DAGI BA’ZI FORS SO’ZLARNING BIZ BILMAGAN MA’NOLARI

Najmiddinova Dildorabegim Otabek qizi

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro
davlat tibbiyot instituti o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va ingliz tili
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asosiy diqqatni ba’zi fors-tojik so’zlariga, ularning bir necha ma’nolariga va ma’nolarning uyg’unligiga qaratishni xohlayman. “Boburnoma”dan olingan ushbu so’zlar orqali esa, bizga no’malum bo’lgan bir necha leksik ma’nolarni sanab o’tmoqchiman.*

Kalit so’zlar: *“Boburnoma”, fors-tojik so’zlar, ma’nodosh so’zlar, omonim so’zlar, zid ma’noli so’zlar, etimologiya, dialektologiya,*

Annotatsion: *My purpose from this article, give attention to some persian words, their some meaning and proportion of meanings. I want to say lexical essence of words which taken from “Boburnoma”.*

Key words: *“Boburnoma”, persian words, synonym words, homonym words, antonym words, etymology, dialectology*

Аннотация: *Цель этой статьи , подчеркнуть некоторые персидско-таджикские слова, их значения и сочетания смысла. Через эти слова, взятые из “Бабурнамы” , я хотела бы перечислить некоторые неизвестные нам лексические значения.*

Ключевые слова: *“Бабурнама”, персидско-таджикские слова, синонимы, омонимы, антонимы, этимология, диалектология.*

“ **Boburnoma**” yetuk badiiy va tarixiy asar. Badiiy tasvirga xos talqinlar, voqea-hodisalarning butun voqeyligi bilan kitobxon ko’z oldida gavdalantira olish, so’z ustida san’atkorona ishlash, uslub baquvvatligi – bu birinchi xusuiyat bo’lsa, ikkinchi xususiyat esa o’ziga alohida xosligi ya’ni ta’sirchanlikning ustuvorligidir. XV asrning oxiri – XVI asrning birinchi yarmigacha Xuroson, Movaraunnaahr, Kobul va Hindistonda bo’lib o’tgan voqea-hodisalarni o’z ichiga olgan asar, o’zining tarixiyligi, tilining ravonligi va uslubning mohironaligi bilan ajralib turadi. “Boburnoma” kitobxon uchun ko’pseriyali film. Bu ulug’asarda deyarli 50 yillik Movaraunnahr, Xuroson, Hindiston va ularga yondosh mamlakatlarda kechgan voqea-hodisalar tizilishib, kitobxon ko’z o’ngida namoyish etiladi. Shu ma’noda ham asarni ajoyib tarixiy roman deyishimiz mumkin. “Boburnoma” asari har tomonlama o’qib izlanadigan ilmiy asar, uni nafaqat tarixiylik jihatidan, balki badiiylilik, etimologik, siyosatshunoslik, manbashunoslik, dinshunoslik va hatto, tilshunoslik bilan ham bog’lab o’rgansa bo’ladi. Asarni o’qib chiqqanimda esa, u yerda turkiy tildagi so’zlardan tashqari, fors-tojik tiliga doir bejirim so’zlarga , satrlarga ko’zim tushdi va ushbu maqolamda,

asardagi ba'zi fors-tojik so'zlarini etimoloiya bilan bog'lab, ularni o'rganib chiqishga qaror qildim.

Asardagi "fosila" so'zi "chegara", "masofa" degan ma'noni bildirib kelgan, geografik joy nomini bildiruvchi ot bo'lib kelgan. Masalan, "Qal'aning girdo girdi tamom mahallottur. Bu mahalla bila qal'ag'a fosila ushbu xandaq yoqasidog'i shohruhtur". [Boburnoma 1989; 6] Bu so'zning bundan tashqari "pauza" yoki "to'xtam", adabiyotda "misralarning birligi", nashriyotda "ketma ket kelgan so'zlarning oralig'i" va yana "masofani saqlash" degan ma'nolari mavjud. "Deh" so'zi asarda "qishloq" ma'nosida kelgan, ya'ni "Deh kujovu, daraxton kujo" (Qishloq qaydayu, daraxtlar qayda) [Boburnoma 1989; 8] ushbu jumla fors asarlarida maqol sifatida kelib, o'zbek tilida "Bog'dan kelsa, tog'dan keladi" iborasi bilan sinonim. Bundan ko'rinib turibdiki, bizga ma'lum bo'lgan "dehqon" so'zining etimologiyasi ham fors-tojik tiliga borib taqaladi. Fors-tojik tilida "dehqon", "dehgon", "dehqoni" degan variantlari ham bor bo'lib, "yer egasi", "mulkdor", "qishloq boshlig'i" va yana "hikoya aytib beruvchi" degan tarixiy ma'noga ham ega. Asarda "shurb" degan so'z ham bo'lib, "ichkilik", "mastlik" degan ma'nolarni bildirib kelgan. Masalan, "Sulton Ahmad shurb mahallarida ham namozi tark bo'lmas edi". [Boburnoma 1989;19] Bundan tashqari shurb so'zi "may" "vino" ma'nosida ham keladi.

"Boburnoma" dagi har bir fors-tojik so'zlari o'zining tarixiyligi va ko'p ma'noligi bilan ajralib turadi. Obrazlarning nutqidagi fors so'zlar yoki Bobur nutqidagi fors so'z va satrlar asarni yanada ham boyitgan desak adashmaymiz. Boburning keltirgan har bir fors-tojik so'zlarining ma'nolarga boyligi, etimologik bejirimligi kitobxon qiziqishini yanada ham ortgan. Asarni o'qir ekansiz, bu so'zning yana qanday ma'nosi bor ekan degan savol sizni qiziqtiradi.

"Agar kelib faryodimizg'a yetmasangiz ish vubol bo'lg'usidir". [Boburnoma 1989; 50] Matndagi vubol so'zi eski forsiy so'z bo'lib, asarda "qiyinchilik" ma'nosida kelgan. Bundan tashqari ushbu so'zning "dilhiralik", "gunoh", "ayb" degan ma'nolari ham mavjud. Vubol so'zi bilan forslarga mashhur bo'lgan maqol mavjud, Dasti shekesta vuboli gardon ast tarjimasi : Singan qo'l yelkaga qiyinchilik yetkazadi . [Rubinchik ; 693] Bu so'zda metateza hodisasi ham bo'lgan, ya'ni vubol so'zining birinchi v harfi bilan uchinchi b harfi o'rin almashishib uvol shakli paydo bo'lgan. Hozirgi kunda esa, barchaga ma'lum bo'lgan uvol so'zining kelib chiqishi ham fors tiliga borib taqaladi. "Sulton Ali mirzoni Ko'k saroyg'a chiqarib ko'zlariga mil torttilar, jarrohning ixtiyori bila yo bexost milidin Sulton Ali mirzoning ko'zlariga osibe yetmadi". [Boburnoma 1989; 36] Ushbu matndagi osibe so'zi fors tilidagi so'z bo'lib, asarda "zarar" "ziyon" degan ma'nolarda kelgan. Bu so'z bundan tashqari fe'l bo'lib ham keladi, ya'ni osibe yoftan – zarar ko'rish, osibe zadan – ziyon yetkazish. [Rubinchik ; 91]

"Boburnoma" da nafaqat oddiy fors-tojik tilidagi so'zlar, balki hayvonot, tabobat, nabotot, geografiyaga oid bir qancha nodir so'zlarni ham ko'rish mumkin. Bu so'zlar orqali esa hozirda bizga ma'lum bo'lgan atamalarning fors-tojikcha nomlanishi bilib olishimiz mumkin. Yangi izlanish esa, albatta, bizning qadimiy so'z boyligimizni yanada ko'paytiradi. Masalan, asardagi "yabruxus sanam" [Boburnoma, 1989; 8] fors tilidan olingan bo'lib, hozirgi tarjimasi mehriyoh o'simligining nomi. Yana boshqa nomlanishi "yabruh" bo'lib, bu ham

mehrigiyo o'simligining nomlanishi.[Rubinchik; 1515] Boburnomada keltirilishicha, Marg'ilonda "donai kalon" ya'ni "katta donakli" deb atalgan anor turi mashhur bo'lgan. Yoki asarda o'rik mevasining forscha nomi "zardolu" ham bizga ushbu mevaning jozibador nomlanishini bildirgan. Bunda zardolu so'zini birma-bir tarjima qilsak agar, zard-sariq, olu-olcha ya'ni sariq rangli olcha, o'zbekchada esa o'rik mevasining nomlanish asosini bildirib kelgan.

Boburni Hindistonning boy, xilma-xil va g'aroyib hayvonot dunyosi qiziqtiradi. "Hindistonda jonivorlar ko'p: to'ti va shorak, tovus va lo'cha, maymun, nilagov va ko'tahpoy. Balki, bu mazkur jonivordan yana o'zga-o'zga jins qushlar va jonivorlar bo'lur" Asardagi shorak hozirda mayna qushining eski fors tilidagi atalishi yoki nilagov esa bu tuyoqlilar oilasiga mansub bo'lgan antilopaning eski nomlanishi. [Rubinchik; 732]

Ko'rinib turibdiki, qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Boburnoma asarida Movaraunnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an'anaviy tadbir marosimlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Ayniqsa, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Marg'ilon kabi shaharlarning bejirim havosi, jugrofiy-ma'muriy tuzilishi, ularning meva-sabzavotlari-yu tabiati haqidagi qimmatli ma'lumotlar kitobxonni yanada ham qiziqtiradi. Kitobni o'qishim davomida, har bir shaharga berilgan ta'riflarning eski turkiy tilda va albatta, fors-tojik tilda bayon etilishi meni yanada ham o'ziga maftun qildi. Asarga bo'lgan qizishimni va intilishimni orttirdi.

Har bir kitobxon asardan ma'lum bir yangi bilimga ega bo'lishiga ishonaman, chunki Boburdek zabardast davlat arbobi, adabiyotshunos shaxs o'zining ushbu asari orqali biz avlodlarga buyuk meros qoldirgan va albatta, asar ustida yanada ham teran ishlash bizning zimmamizdagi vazifa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziyouz.com
2. cyberleninka.ru
3. "Boburnoma" kitobi, T.: "Yulduzcha", 1989. – 367 b
4. Рубинчик.Ю. Персидско-русский словарь, Р.: "Русский язык", 1970 – 790 b
5. Хадятуллои Хайрулло, Махмадсаиди Сайфулло. "Фарханг" тоҷики-русӣ словарный программа
6. Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati, T.: "Universitet", 2000. – 600 b